

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI • ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

OIV - DOLZARB MUAMMO

Muzaffarova Ruxshona Jahongir qizi

BuxDPI 1-bosqich talabasi

Norboyev Sardor Qavmuddinovich

BuxDPI ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Tel: +998914099705

Elektron pochta: rukhshonajahongirovna2906@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10363928>

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan, OIV infeksiyasi va OITS xastaligi, belgilari, yuqish usullari haqida ma'lumotlar jamlangan. Hozirgi kunda ham ushbu infeksiya o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu maqola ham OITS va OIV xastaligi, ularga qarshi qo'llanilayotgan chora-tadbirlar tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: OIV, OITS, epidemiy, immunitet, infeksiya, xavfli o'sma.

HIV IS AN URGENT PROBLEM

Abstract. This article mainly contains information about HIV infection and the methods of their symptoms. This article, which has not lost its relevance today. Also deals with the analysis of AIDS and HIV and the measures taken against them.

Keywords: HIV, AIDS, epidemic, infection, cancer.

ВИЧ – АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. Эта статья в основном содержит информацию о ВИЧ – инфекции и СПИДе и их симптомах. Сегодня эта инфекция не потеряла своей актуальности. Данная статья также посвящена анализу заболеваний СПИД и ВИЧ и мерам, принимаемым против них.

Ключевые слова: ВИЧ, СПИД, эпидемия, инфекция, опасная, упохоль.

Bugungi axborot asrida fan – texnika taraqqiyoti qanchalik yuqori bo'lmasin yechimi topilmayotgan muammolar ham yetarli. Har qaysi davrda ham inson, uning salomatligi va sog'ligiga alohida e'tibor beriladi. Afsuski, XXI asrda ham keng tarqalgan kasalliklarga e'tiborsizlik tufayli inson hayoti xavf ostida qolishi, ba'zi hollarda esa o'lim bilan yakun topishi mumkin .

Hozirgi davrda ham bir qator yuqumli kasalliklar mavjud bo'lib, bular orasida OIV infeksiyasi va OITS xastaligi ayniqsa ko'payib bormoqda. OITS xastaligiga ta'rif berishdan avval OIV infeksiyasi atamasiga to'xtalishimiz joiz.

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

“OIV (odam immuniteti tanqisligi virusi)surunkali yuqumli kasallik bo’lib, inson organizmida butun hayoti davomida saqlanib qoladi. U organizmni tashqi xavfli ta’sirlardan himoya qiluvchi tizim -immun tizimini izdan chiqaradi. Uning o’ziga xosligi shundaki, virus organizmga tushgan dastlabki davrda hech qanday noxush alomatlar sezilmaydi, immun tizimi viruslarning tajovusini bostirib turadi”¹.

Bu virusni yuqtirib olgan inson uzoq yillar davomida o’zini kasal ekanini sezmaydi. OIV virusi bilan kasallangan hujayralar ko’pyib borishi natijasida OITS (ortirilgan immunitet tanqisligi sindromi yuzaga keladi. Bu ham uzoq davom atuvchi xastalik bo’lib faqat odamning bitta a’zosiga emas qolgan sog’lom organlariga ham o’z ta’sirini o’tkazadi. Ayniqsa immun tizimiga juda qattiq zarar yetkazadi va u o’z vazifasini bajara olmaydi. Albatta immuz tizimi ishdan chiqandan keyin inson har qanday tashqi ta’sirga sezuvchan bo’ladi oddiy kasalliklar ham juda og’ir kechadi. Boshqa yondosh kasalliklar ham rivojlanib boraveradi. Ya’ni OITS OIV infeksiyäsining eng so’ngi davri hisoblanadi.

Organizm bilan virus o’rtasida kurash avj olib virusning ustunligi bilan tugaydi. OITS davrining boshlanishi ham xuddi shu vaqtida to’g’ri keladi. Nafas meda ichak, siyidik yo’llarida mavjud kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bular esa OITS bilan bog’liq infeksiyalar deb ataladi chunki OITS holati bilan bog’liqligi bo’lganligi uchun kasallik virusi infeksiya yuqqan odamning qinida, erkaklar shavkatida. ayollarning jinsiy a’zolarining chiqindilarida va ko’krak sutida bo’ladi, shuning uchun OITV, asosan, uch xil yo’l bilan yuqori qon orqali, jinsiy aloqa vositasida va infeksiya yuqqan onadan homilasiga vertikal yo’l bilan o’tadi”².

Bu kasalikka chalingan insonlarning ko’pchiligini narkamanlar (giyohvandlar, fohishalar) tashkil etadi. Ya’ni shuni ta’kidlash joizki, muolajalar vaqtida nostril igna, shiprits, va boshqa tibbiy anjomlarni ishlatishda ham bu kasallikni yuqtirib olishadi.

OITS sababsiz uzoq davom etuvchi yo’tal, qisqa vaqt ichida keskin ozib ketish, harorat sababsiz ko’tarilishi, uzoq vaqt ich ketishi, og’iz bo’shlig’i va turli a’zolar yallig’lanishi, xavfli o’smalar rivojlanishi kabi belgilar bilan namoyon bo’ladi.

Olimlarning fikriga ko’ra dunyo bo’yicha ayni paytda 37 mln kishi OIV kasalligi bilan kurashib kelmoqda. Kasallikning ko’p hollarda yosh insonlar o’rtasida tarqalishi kuzatiladi.

¹ <https://uz.m.wikipedia.org>

²<https://med360.uz>

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Ushbu xastalikning belgilari uzoq vaqt yashirin tarzda kechishi bois kasallik bilan og'rigan bemorlarning boshqalarga yuqtirish xavfi ko'proq bo'ladi.

Hozirda tibbiyot asrida yashayotganimiz sababli, OIV infeksiyasiga chalingan odamning umrini, sog'lom odamning umrichalik cho'zish mumkin ko'rsatilgan muolajalar bilan, albatta. Ko'rsatilgan muolajalar bemorni to'laqonli virusdan xalos etmasa-da, ammo uning bemor qonida ko'payishiga ham yo'l qo'ymaydi. Muolajalar natijasida bemorda immunitet paydo bo'ladi va virusga qarshi hujayralar ko'payib, bemorning ahvoli sezilarli darajada yaxshilandi.

Bizning mamlakatimizda O'zbekistonda OITS epidemiyasi ilk bor 1987- yilda aniqlangan. SHu sanadan boshlab 2003-yilga qadar Respublikamizda 3531 nafar OIV virusi yuqtirib olgan shaxslar ro'yxatga olingan. Respublikamizda virus bilan kasallangan bemorlarning ichida ko'pchiligin chet el fuqarolari tashkil etgan. Respublikamizda jami qayd etilgan 3531 nafar OIV yuqqan bemorlarning 11nafari 15 yoshgacha bo'lган bolalardir, 2916 nafari erkaklar va 615 nafarini ayollar tashkil etadi. Biroq rasmiy statistika virus yuqqan odamlarning aniq sonini ko'rsatolmaydi, chunki OIV ga chalingan bemor tekshiruvdan o'tishga kelguncha, ya'ni uning kasalligi aniqlanguncha bemor bir necha kishiga kasalligini yuqtirgan bo'ladi.

Albatta, har bir inson o'zini noqulay his qilganda, ya'ni o'zida shubhali holatlarni sezgan taqdirda ixtiyoriy tarzda tekshiruvdan o'tishi mumkin, Buning uchun har bir viloyat va tumanlarda OITSga qarshi kurashish markazlari tashkil etilgan. Mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasida ham "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mavjud bo'lib, ushu qonunga binoan tekshiruvga kelgan shaxsing xohishiga ko'ra yashirin tarzda tekshiruvlar o'tkaziladi. **OITS tekshirish natijalari qanday bo'lisdidan qat'i nazar vrach buni sir saqlashi kafolatlanadi.** SHuning uchun ham tekshiruvlardan o'tishga qo'rmaslik kerak. Zeroiki, aynan bu virusni davolash qancha oldin boshlansa, bemorning tuzalishga bo'lган ishonchi ham ancha yuqori bo'ladi. Yuqorida nomi keltirilgan qonundan ham bilsak bo'ladi-ki, O'zbekistoda ham mazkur kasallik bo'yicha ko'rilib yuqtirilgan chora-tadbirlar yetarlicha. Hozirgi kunda hammamizga ayon-ki, yoshlar nikoh qurishidan oldin OIV infeksiyasi bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tishadi, shu tibbiy ko'rik paytida nikoh qurmoqchi bo'lган qiz yoki yigitda kasallik aniqlansa, dispenser nazoratiga olinadi. Bundan tashqari, infeksiya onadan bolaga ham yuqadi deb ta'kidlab o'tdik yuqorida shuning oldini olish bo'yicha ham ishlar yo'lga qo'yilgan. Ya'ni har bir homilador ayol homilasining o'n to'rtinchı haftasidan boshlab joylardagi tibbiyot muassasasi tomonidan nazoratga olinib, OIV

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

bo'yicha tekshiruvdan o'tkaziladi. OIV infeksiyasi aniqlangan ayolga esa tug'ruq amalga oshirilgunga qadar virusga qarshi maxsus profilaktik dorilar beriladi. Tug'ilgan bolaga ham bir oy davomida virusga qarshi maxsus profilaktik preparat beriladi. Buning natijasida esa kasallikning onadan bolaga yuqishi ancha kamayadi. Bundan tashqari OIVni yuqtirib olganlarni ijtimoiy muhofaza qilish uchun jamoa tadbirlari kuchaytirish, OIV infeksiyasiga chalingan ayollarning bolalarini quruq sut aralashmalari bilan ta'minlash masalalari ham yo'lga qo'yilgan.

"2018-yilda tasdiqlangan 3493 va 3800-sonli Prezident qarorlarining ijrosi sifatida 63ta tumanlararo OIV diagnostik labaratoriylar OITSga qarshi kurashish markazlari tasarrufiga o'tkazilib, zarur tibbiy uskunalar bilan jihozlandi, har bir viloyat yuqumli kasalliklar negizida beshtadan qirqtagacha OIV bemorlarga xizmat ko'rsatadigan o'rinalar tashkil etildi. Bemorlarga qulayliklar yaratish maqsadida 260 ta yuqumli kasallik xonalari mutaxassislari qayta o'qitilib, tayyorlandi va OITSga chalingan bemorlarni davolash ishlariga jalb etildi. OIV infeksiyasiga tekshiruvlar soni 700 mingdan uch yarim millionga yoki besh barobarga ortdi. Hukumatimiz tomonidan dori vositalarini moliyalashtirish 80 foizni tashkil etib, Xalqaro tashkilotlar tomonidan 20 foiz holatlarda dorilarni Respublikamizga olib kirilishi hamda kasallik aniqlanishi bilanoq, barcha bemorlarga dori vositalarini berib boorish yo'lga qo'yildi"³.

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: "Sog'lom avlod deganda, men faqatgina jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, balki ruhan va fikran sog'lom, mustahkam e'tiqodli, ma'lumotli, ma'naviy boy, o'z Vatanini seuvuchi. mard avlodni ham ko'zda tutaman", -deb aytgan gaplari bejizga emas, albatta, chunki har bir mamlakatni rivojlanishi uchun, avvalambor, xalqqa sog'lom insonlar kerak bo'ladi. "Ayniqsa bu kasallik oshlar orasida avj olganligi sababli ham yoshlari masalasiga jiddiy yondashmoq lozim. OIV yuqish masalalarini to'g'ridan-to'g'ri xalq muhokamasiga olib chiqish, albatta, milliy axloq-odob qoidalariga zid ekanligini qayd etib o'tish mumkin"⁴. Ammo bu virusning yoshlari, ayniqsa, qiz bolalarning orasida ko'proq tarqalayotganligini yuqorida keltirib o'tilgan sonlardan ham bilishimiz mumkin. Shunday ekan endi ularning xabardorligini ta'minlash, kasallik aniqlangan vaqtida da'volash ishlarini boshlashjoiz. Jamiyatda xotin-qizlarning tengsizligi, ayollarning moddiy jihatda erkaklarga qaramligi, oilaviy zo'ravonliklar tufayli ushbu kasallik yanada kuchaydi.

³ <https://www.gazeta.uz>

⁴ A.Pakirdinov va U.Valixonov "OIV/OITS" –T.: "Tafakkur bo'stoni". 013

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

O'zbekistonda OIV infeksiyasi tarqalishining muhimm sabablaridan yana biri ushbu kasallik bilan kurashayotgan bemorlarning jamiyatda kansitilishi bilan bog'liq. Shu sababli ham yurtimizda ko'pchilik OIV bilan kasallangan bemorlar o'zlarining kasal ekanliklarini bilmaslikni va bildirmaslikni afzal ko'rmoqda. Buning oqibatida esa OIV bilan kasallangan shaxs bilib yo bilmay turib o'zining OIV virusini boshqa bir insonga yuqtirishi xavfi yuqori. Inson o'z kasalini bilib turib boshqa bir shaxsga yuqtirishi javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun ham har bir yigit va qiz bu imfeksiyaning tarqalish yo'llari, uning oldini oladigan tadbirdardan xabardor bo'lishi, o'zini ehtiyyot qilishi va ushbu virus aniqlangan taqdirda davolanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson uchun, avvalo, uning sog'ligi birinchi o'rinda turadi, xalqqa, jamiyatga ham sog'lom va kelajagi bor barkamol avlod kerak. SHunday ekan, har bir inson, avvalo, sog'ligiga e'tiborli bo'lishi darkor. Zeroki, OIV xastaligi davosi yo'q kasallik hisoblansada undan butunlay tuzalib bo'lmasa ham vaqtida kerakli muolajalar bilam davolanilsa, yuqorida aytganimizdek, sog'lom inson umridek hayot kechirish mumkin.

REFERENCES

1. <https://www.gazeta.uz>
2. A.Pakirdinov va U.Valixonov "OIV/OITS" –T.: "Tafakkur bo'stoni". 2013
3. <https://med360.uz>
4. <https://daryo.uz>
5. <https://uz.m.wikipediya.org>

MODERN SCIENCE
& RESEARCH